

## Musaffo Sux



### **Musaffo Sux**

Hurmatli So'xliklar, sizlarning boshingizga tushgan bu musibatli voqealardan juda-juda tashvishlandim. Men bu jannatmakon yurtda tez-tez bo'lib turaman, uning tabiatni, ajoyib, mard, tanti odamlari haqida she'rlar, hikoyalar yozganman. O'tgan yili o'zbekcha va tojikcha markaziy gazetalarda "Musaffo So'x" degan lavham, she'lарим chiqqan edi. O'tgan yili borganimda Chashmani ko'ray desam temir panjaralar bilan o'rab tashlangan ekan, ko'rolmadim. Tinchgina qaynab yotgan, qumlaridan tillo otiladigan Tabarruk Chashmaga kimlardir xo'jayinlik qilmoqchi bo'lsa, yana kimlardir ertayu kech yo'lto'sarlik bilan shug'ullansa... Necha odamlarning boshlari toshdan yorilsa, kechagina o'ynab yurgan bir yigitchamiz bugun jon joyidan o'q yeb yotsa... Bu ishlarni boshlagan yovuzlar tezroq jazosini olsin, jarohat olganlar sog'ayib ketishsin, o'q yeganlar ham iloho tuzalib ketishsin... So'x o'zi jannatdek joy, boshqalardan hech narsa so'ramaydi, balki beradi: meva-cheva, shirin kartoshka, devzira guruch yetkazadi, So'xning toshqin suvlari to Qo'qongacha yetib boradi. So'xdagi odamgarchilik, So'xdagi mehmondorchilik dunyoda yo'q! Faqat So'xni tinch qo'yishsin, yo'llari ochib berilsin xolos. Sog'-omon, tinch bo'linglar so'xlik do'stlar!

**Muxtor Xudoyqulov - yozuvchi**

2020-06-04 19:11:52